

MAVLONO QORI ZOKIRNING MUVASHSHAH G'AZALLARI XUSUSIDA

Madg'oziyev Iskandar Abduvosit o'g'li
Andijon davlat universiteti, O'zbek
adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi
madgaziev93@mail.ru

Annotatsiya: maqola Andijon adabiy muhitida qalam tebratgan sohibdevon shoir Qori Zokirning muvashshah g'azallari tadqiqiga bag'ishlangan. Shoir muvashshahlarning o'ziga xos xususiyatlari va uning mazkur janr imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi harakatlari xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: g'azal, muvashshah, akrostix, taxallus, misra, she'riy san'at, maktub.

XIX asr oxiri XX asr 1-yarmi Andijon adabiy muhitining zabardast vakillaridan Mavlono Qori Zokir Muhammadnazar o'g'li (1867-1943) lirikasida muvashshahlar yetakchi o'rin egallagaydi. Shoir ijodiy merosi sarhisob etilganda, uning 48 g'azali, 2 murabba' va 2 muxammasi aynan muvashshah ekanligi ma'lum bo'ldi. Aytish lozimki, muvashshah g'azal bitish an'anasi avvaldan mavjud bo'lib, uning murabba', muxammas va musaddas shaklidagi ko'rinishlari ayni davr ijodkorlari tarafidan mumtoz poetikaga kiritilgan yangilik sifatida baholanishi mumkin.

Aynan muvashshah tipidagi she'rlar qadimdan ma'lum bo'lgani, uning ilk namunalari yunon adabiyotidagi "akrostix" san'atiga to'g'ri kelishi ma'lum. Shuningdek, arab adabiyotida muvashshah IX asr oxiri X asr boshlarida Kordova (Ispaniya)da yashagan arab shoiri Muqaddam ibn Mu'om al-Qabriy tomonidan joriy qilinganligi qayd etiladi [Nosirov O. 2:76]. Umuman muvashshahchilik Qori Zokir yashagan davr she'riyati uchun xos xususiyat sanalib, unga zamondosh bo'lgan ijodkorlarning adabiy merosidan ham yetarlicha misollar keltirish mumkin. Jumladan, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Zoriy, Muntazir, Haziniy, Kamiy, Pirimqori ijodida ushbu janr keng o'rin tutadi.

Chunonchi Qori Zokir ham o'z davri ijodiy yutuqlarini istifoda etgani holda muvashshahchilikda quruq shaklbozlikka, zo'rma-zo'rakilikka berilmay, aksincha, muvashshahning ohorli mavzulardagi, chuqur lirizm va teran mazmunga yo'g'rilgan, san'atkorona go'zal tashbeh va istioralar qo'llangan badiiy jihatdan barkamol namunalari yaratdi. Bu o'rinda shoirning "Mullo Qosimjonxon" ismiga bitilgan 7 baytli muvashshah g'azali maqta'ini misol tariqasida keltirib o'tamiz:

Nazm gulzorida noming band har gul boshida,

Zokiring go'yoki bulbul loyiqi ash'or o'zing [Qori Zokir. 3:73].

Ko'rinib turibdiki, bunda she'r bag'ishlangan shaxsni shunchaki maqtab, sifatlarini sanab qo'yilayotgani yo'q. Aksincha, an'anaviy *gul, gulzor, bulbul* obrazlaridan foydalangan holda Mullo Qosimjonning tab'i nazm egasi ekanligiga

ishora qilib, fazli ash'or bitishga loyiq insonligini ishonarli va ta'sirli tarzda bayon etadi.

Lug'aviy ma'nosi "bog'lamoq, ziynatlamoq" bo'lgan muvashshah adabiy istiloh sifatida "...misra yoki bayt boshidagi (ba'zan esa taqte'lar chegarasidagi) harflar yig'indisidan biror so'z (ism) keltirib chiqarish" [Quronov D. 4:298] san'ati yoxud janr hisoblanadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, muvashshahda ismlar juft yoki toq, ba'zan har bir misra avvalidagi harflarning ketma-ket vertikal tartibdabirikuvidan hosil bo'ladi.

Mazkur qoida va ta'riflar Qori Zokirning quyidagi misralarida muayyan darajada o'z ifodasini topgan deyish mumkin:

Olsalar har misraidan harfi ismi a'zam ul,

Nazm gulzorida Zokir bulbuli go'yosidan. [Qori Zokir. 3:193].

Yoki:

Nazm torig'a guhardek nomini harfin terub,

Zokir ash'orin bilurg'a nuktadonim kelmadi. [Qori Zokir. 3:137].

Ushbu davr namoyandalari adabiy merosi tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning aynan muvashshahlarga qaratilgan qismlaridan ma'lum bo'ladiki, bu nav she'rlar asosan er kishilar ismiga bog'lanib, ayollar ismlari esa juda siyrak uchraydi. Mazkur xususiyat o'z-o'zidan Qori Zokir ijodi uchun ham xos (48 muvashshah g'azaldan faqat 1 tasi ayol kishi ismiga bog'langan). Shoir muvashshahlarida yashiringan ismlar quyidagilar: Muhammadiyxon, mullo Sohijjon, Davronxon, Yusufjon, Arabjon, Jo'raxon, Qambaralixon, Teshaboyjon, Sultonxon, Kamoliddinxon, Qodirchaxon, mullo Jo'raboyxon, Tojialixon, Hoshimjonxon, Abdusattorxon, Karimxon, Zikriyoxon, mullo To'raxon, mullo Muhammadbobo, mullo Qosimjonxon, Sattiqulxon, Xalilxon, Umarxon, Mirzo Muhiddinxon, mullo Obidjonxon, mullo Shokirxon, mullo Muhammad Aminxon, Ro'zimuhammadxon, Zokir qori, mullo Sulaymonquli, Qori Muhammadzokir, Maxzumbek, Ostonaxon, Ergashxon, Akramxon, mullo No'monxon, Qorixon va Imxonoy. Bulardan ayrim ismlarga 2, ba'zan esa 4 martagacha muvashshahlar bog'langan.

Muvashshahdagi ismlar borasida atoqli olim va shoir Maqsud Shayxzodaning "Muvashshah kimning ismiga bog'langan bo'lsa, o'sha g'azalda ta'rif etilgan obraz ham aynan mazkur kishining o'zidir, deb o'ylash xatodir. Muvashshahdagi ism bu g'azalning kimga bag'ishlanganiga dalolat qiladi, xolos" [Shayxzoda M. 6:92], - degan fikrlari g'oyat muhimdir. Darhaqiqat, Qori Zokirning ham bu xil she'rlari aksarqismi ishqiy xarakterda ekanligi undagi yor obrazi va u bilan bog'liq hissiy kechinmalar ifodasi bevosita ism egasiga qaratilgan deb bo'lmaydi. Ta'kidlash joizki, bu xususiyat shoirning ishqiy mavzudagi muvashshahlari uchungina xos. Biroq masalaning boshqa tomoni ham borki, "Odatda muvashshah faqat tirik do'stning

nomiga bog'lanadi. Shuning uchun ismlariga muvashshah bog'langan kishilarni (...) aniqlash va shu orqali shoirning yoru do'stlari, muhiti va doirasi haqida konkret material qo'lga kiritish shoirning ilmiy biografiyasini yaratish uchun muhimdir" [Shayxzoda M. 6:92-93]. Shu o'rinda Qori Zokirning yana bir muvashshahiga murojaat etamiz:

Zamoni baxt keldi boshima ahbob g'aflatda,

Suyar yor o'lsa ham qilgan ishi har bob dahshatda. [Qori Zokir. 3:105]

G'azalning toq misralaridan Zokir qori, juft misralaridan esa Sulaymonqul ismlari hosil bo'ladi. Shubhasiz avvalgi ism shoirning o'ziga tegishli. Xo'sh, unda "Sulaymonqul kim?" degan savol tug'iladi. Andijon viloyat tarixi va madaniyat davlat muzeyi jamg'armasida saqlanuvchi shoir Cho'lpon hayoti va ijodiga oid materiallar yig'majildida Qori Zokirning kichik zamondoshi Jo'ra Qo'ldosh (1916- 1998) tomonidan bitilgan quyidagi xotiranoma ushbu masalaga bir muncha oydinlik kiritadi: "Shoir **Cho'lponning otasi Sulaymon bazzoz** (ta'kid bizniki – I.M.)ning Paxtaobod tumani markazi Qo'qonqishloqda ham bazzozlik do'koni bo'lgani haqida bu yerlik keksalar guvohlik beradi. Bu do'konda Sulaymon bazzozning gazlamalari sotilmay, bino bir muncha vaqt bo'sh qolgan ekan. Chunki, sovet savdosi rivojlanib ketgandan keyin shaxsiy savdogarlar sinib qolgan. Kexsa savdo xodimlaridan Mulla Mamajon Mamadaliyevning guvohlik berishicha, bir safar Cho'lpon bu yerdagi ustoz Qori Zokirni ko'rgani kelganda otasiga qarashli do'konni Qo'qonqishloq matlubot jamiyati ixtiyoriga berib turishni iltimos qilganlar. Shunda shoir Cho'lponbu binoni matlubot jamiyatiga bepul sovg'a tariqasida in'om qiladi..." [Qo'ldosh J. 5:1-2].

Darhaqiqat, avvalgi fasllarda Qori Zokir va Cho'lpon munosabatlari, shuningdek, uning ham bir muddat aynan bazzozlik bilan mashg'ul bo'lgani haqida to'xtalib o'tgan edik. Shu nuqtai nazardan Qori Zokirning Cho'lpon va uning otasi Sulaymonqul bazzoz bilan do'stona aloqada bo'lganligi shubhadan holidir. Yana bir qiziq jihat shuki, shoirning bu nav she'rlari orasida ayni yuqoridagi yo'sinda bitilgan boshqa muvashshahi bo'lib, u ham aynan mullo Sulaymonquli va Qori Muhammadzokir ismlariga bog'langan:

Muborak noma keldi shukri sad yaxshi soatda,

Qayu soat ekankim, keldi bu soati saodatda. [Qori Zokir. 3:106]

E'tiborli tomoni shundan iboratki, shoirning o'z ismi hamda Sulaymonqul nomiga bog'lagan har ikki muvashshahi maktub-noma xarakterida. Birinchi muvashshah g'azalda ikki shaxs o'rtasida noma'lum sabablarga ko'ra o'zaro munosabatda uzoqlashish ro'y bergani va bundan shoirning qattiq iztirob chekkani bayon etilsa, keyingisida bu holat bartaraf bo'lib, do'stidan "muborak noma" kelgani va buning natijasida shoirga behad xursandchilik yetgani izhor qilinadi. Shu qatorda

Qori Zokirning Sulaymonqul bazzozga yo'llagan 18 baytdan iborat she'riy maktubi ham bo'lib, unda adresat aniq ko'rsatiladiki, bu muvashshah bog'langan ism borasidagi mulohazalarga uzil-kesil yakun yasaydi:

Kanvert uzasig'a: Andijonda

Domla Sulaymonqul oxundg'a yetub

Ushbu maktub topsa izzu sharaf,

O'qusunlar ochib ba sad zinhor.

Aylasa do'st tus bu gustox,

Beradur ishtiyoqdan axbor. [Qori Zokir. 3:178].

Ma'lumot o'rinda aytish lozimki, Sulaymonqul bazzoz mullo Muhammad Yunus o'g'li (1874-1929) yetuk ilm egasi o'laroq "Domla Sulaymonqul oxund" nomi bilan Andijonda shuhrat qozongan, shuningdek, tab'i nazm sohibi sifatida "Vola Rasvo" taxallusida ijod qilib, o'zidan salmoqli adabiy meros qoldirgan va u bizgacha yetib kelgan [Abdurahmonov M. 1:25-26]. Zotan ushbu ijod namunalari tadqiq etilishi orqali kelajakda har ikki ijodkor shaxs o'rtasidagi munosabatlarga yanada oydinlik kirituvchi ma'lumotlar aniqlanishi ehtimoldan holi emas.

Qori Zokir ijodida muvashshahlarning irfoniy, axloqiy-ta'limiy va boshqa mavzudagi namunalari ham uchraydi. Ular orasida konkret shaxsga qaratilgan ayrim muvashshahlar ham bo'lib, shulardan biri "Yusufjon" ismiga bog'langan:

Yusufi soniymusen, ey go'dak jonon ajab,

Muncha oqilsenki, noming mullo Yusufjon ajab? [Qori Zokir. 3:135].

Muvashshahda mullo Yusufjon ismli tolibi ilm haqida so'z yuritiladi. Uning aqlu zakovati, xushxat kitobati maqtaladi. Keyingi o'rinlarda unga xitoban ilmga yanada jiddiy bel bog'lashi lozimligi, yoshlikni g'animat bilib, qobiliyatini zoye qilmasligi, hamisha ustod xizmatida bo'lib, uning duosini olishini ta'kidlarkan: "*Har kimi olsa duo oxir bo'lur sulton, ajab*" deya fikrini yakunlaydi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, Qori Zokir o'z davrining tipik vakili o'laroq she'riyat maydonida mavjud an'analar doirasidan chetga chiqmagan. Baxtga qarshi bu davr ijod ahli orasida quruq shaklbozlik, zo'rma-zo'rakilikka berilish hollari ham yo'q emasdi. Bulardan tamoman farqli ravishda Qori Zokir o'z ijodiga g'oyat maslu'iyat bilan yondashganligi, va bu borada sun'iylikka yo'l qo'yimaslikka intilgan yaratgan ijod mahsullarida yaqqol namoyon bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov M. Sulaymonqul mullo Muhammad Yunus o'g'lining adabiy merosi haqida. "Cho'lpon: hayoti va ijodiy merosi" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (Andijon, 2000-yil, 2-3-iyun). Andijon: 2000. – B. 90.
2. Nosirov O., Jamolov S., Ziyoviddinov M. O'zbek klassik she'riyati janrlari. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1979. – B. 182.

3. Qori Zokir devoni. Andijon viloyat tarixi va madaniyat davlat muzeyi jamg'armasi 747 raqamli qo'lyozma. 306 bet.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: "Akademnashr", 2010. – B. 400.
5. Qo'ldosh J. Xotiranoma. 1997-yil 24-iyul. Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondi. 2 sahifa.
6. Shayxzoda M. Asarlar. 6 jildlik. 5-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973. – B. 361.